

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжоновна Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилатхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich

University of Business and Science "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Email: ulugbekiuldashev08@gmail.com

Tel: +998 90 555 45 23

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-5043-7387>

Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya. O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajriba asosida amalga oshirilgan islohotlardan biri inklyuziv ta'limning joriy qilinishi bo'ldi. Maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasi, ushbu ta'lim shaklining rivojlanish bosqichlari hamda ushbu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar va vujudga kelgan muammolar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, nogironlar huquqlari, ta'limda tenglik, maxsus internatlar, korreksion maktablar, segregatsiya modeli, jamiyat stereotiplari.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE INCLUSIVE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Yuldashev Ulugbek

Teacher of Department of Social Sciences, University of Business and Science,

Namangan, Uzbekistan

Annotation. One of the reforms implemented in the education system of Uzbekistan based on international experience was the introduction of inclusive education. The article analyzes the concept of inclusive education, the stages of development of this form of education, as well as the achievements and problems that have arisen in this area.

Key words: inclusive education, rights of people with disabilities, equality in education, special boarding schools, correctional schools, segregation model, societal stereotypes.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i2/n10>

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida xalqaro tajriba asosida keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda jahonning rivojlangan davlatlari tajribasidan kelib, ularning eng muhim yutuqlarini joriy etishga e'tibor qaratilmoqda. Shunday muhim islohotlardan biri inklyuziv ta'limning amalga kiritilishi bo'ldi. Inklyuziv ta'lim - barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir [3; B.8]. Bu ta'lim shakli ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini ta'lim tizimida ham joriy etishga qaratilgan. Bu nogironligi bor bolalarni jamiyatdan ajratmasdan, ularga hamma qatori ta'lim berishni nazarda tutadi. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy sohadagi siyosati har bir insonga teng imkoniyatlar yaratib berishga qaratilgani ta'lim sohasida ham ijtimoiy adolat va tenglik prinsiplarini joriy etishni talab etadi. O'zbekiston hukumatining ta'lim sohasida yuritayotgan siyosati dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, inson qadri va sha'nini yuksaltirishga xizmat qiladigan ijtimoiy sohasidagi siyosatning bir qismi hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi ular uchun obyektlar hamda

xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridan, sog'liqni saqlashdan, ta'limdan, ishga joylashishdan, shuningdek, axborotdan va aloqa vositalaridan foydalanish kafolatlarini yaratishga hamda ulardan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini berishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ta'minlanadi [2]. Bu O'zbekistonda nogironligi bor shaxslar ham barcha sohalaridagi ijtimoiy xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini anglatadi. Ta'limda ham tenglik va adolat tamoyillarini ta'minlashdan iborat maqsadni amalga oshirish uchun inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish zaruratga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim joriy etilishi ijtimoiy va siyosiy zaruratga aylangan edi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim rivojlanishi tarixini o'rganish uch tarixiy bosqich (1991-yilgacha, 1991-2016-yillar, 2017-yildan keyingi davr) asosida amalga oshirildi. Sovet davridagi maxsus maktablar va nogironligi bo'lganlarga ta'lim berishdagi siyosatini yoritishda amerikalik olim Moos(1950)ning Sovet Ittifoqidagi ta'lim tizimiga oid kitobidan foydalanildi. Mustaqillik yillaridagi alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalarni o'qitish borasidagi davlat siyosati tegishli O'zbekiston Respublikasi qonuni (2020) va Prezident qarori (2020) asosida o'rganildi. Ushbu rasmiy hujjatlarda aks etgan masalalarning amalda qo'llanilishi davriy matbuot materiallari (O'zbekiston ovozi, 2024-yil 7-fevral soni), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi ma'lumotlari (Samarqand viloyati misolida) va og'zaki tarix metodlari asosida o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Inklyuziv ta'lim va "mehrli maktab" faoliyatini muvofiqlashtirish bo'lim boshlig'i bilan 2025-yil 16-iyuldagi suhbatda ham bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarining holati bo'yicha ko'plab ma'lumotlar olindi. Shu tariqa, ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, hujjatlar tahlili, statistik ma'lumotlar tahlili va og'zaki tarix metodlaridan foydalanildi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim vujudga kelishini 3 bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich sovet davri hisoblanib, bu davrda maxsus internatlar va korreksion maktablarda rivojlanishda nuqsoni bor va nogironlarga ta'lim berilgan. Sovet davri ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bu turdagi bolalarning ham o'zlarini jamiyatni bir qismi sifatida his qilishlari uchun umumta'lim maktablaridagi kabi turli san'at va hunarmandchilik to'garaklari, qo'l mehnati uchun maxsus do'konlar, musiqa va raqs kabi mashg'ulotlarda ishtirokiga e'tibor qaratilgan. Kar, soqov va ko'r bolalar uchun ta'lim 16 yoshgacha majburiy bo'lgan. Defektolog va maxsus maktablarning fan o'qituvchilari maoshi yuqori bo'lib, bu ham imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy guruh tarkibiy qismi sifatida o'zini his qilishiga qaratilgan edi [1; B.36-37.]. Garchi Sovet davlatida nogiron va nuqsoni bor bolalar ta'limi e'tibordan chetda qolmagan bo'lsa-da, bu ta'limda inklyuzivlikni emas, segregatsiya tartibini o'rnatdi. Chunki ular hamma qatori umumiy maktablarda teng imkoniyatlarga ega holda ta'lim olmadi.

Mustaqillikning dastlabki davrida nogironligi bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha dastlabki huquqiy asoslar yaratildi. Masalan, 1991-yilgi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda davlat nogironlarning ijtimoiy himoya qilinishi ta'minlab, bilim olish va kasb o'rganishi uchun to'siqlarni bartaraf etish maqsadida barcha sharoitlarni yaratib berishi ko'zda tutilgan [9]. 1997-yilgi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilishi belgilab qo'yilgan [5]. Ammo inklyuziv ta'lim tajriba doirasida qolib ketdi, ya'ni keng amaliyotga kirib kelmadi. Maxsus ta'lim ustuvorligicha qoldi. Nogironligi va nuqsoni bor bolalarga alohida maktablarda

yoki yakka tartibda ta'lim berish davom etdi. 2017-yildan boshlangan ta'lim sohasidagi islohotlar fonida inklyuziv ta'limga strategik darajada e'tibor kuchaydi. Bir qator muhim hujjatlar ushbu sohadagi qonunchilikni ham takomillashtirdi. 2020-yilda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun va "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilinishi inklyuziv ta'lim joriy etilishi tomon muhim qadam bo'ldi. Prezident qarori asosida inklyuziv ta'limni 2020-2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi ham tasdiqlangan bo'lib, unda ikki bosqichda inklyuziv ta'lim rivojlantirilishi ta'kidlangan. Birinchi bosqich, 2020-2022-yillarda amalga oshirilib, unda inklyuziv ta'lim bo'yicha normativ baza takomillashtirilishi, pedagog kadrlar malakasi oshirilishi, aholi orasida ijobiy tushuncha hosil qilinishi kerak bo'lgan. Ikkinchi bosqichda (2023-2025-yillar) bevosita umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etilishi hamda inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtirilishi kerak edi [7]. Bundan tashqari, 2021-yil 7-iyunda O'zbekiston BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida Konvensiya"(2006-yil 13-dekabr)sini ratifikatsiya qildi [8; B.4]. Ushbu ta'lim shakli bo'yicha mahalliy qonunchilik takomillashtirilib, xalqaro hujjatlar tan olingandan so'ng, amaliyotga joriy etish masalasiga e'tibor qaratila boshlandi. Umumta'lim maktablari alohida ta'limga ehtiyoji borlar uchun moslashtirdi, pedagoglar inklyuziv ta'lim uchun o'qitila boshlandi, ko'plab davlatlar (Yaponiya, Finlandiya, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Singapur) tajribasi o'rganildi. dastlab 31 maktab inklyuziv ta'limga moslashtirilgan bo'lsa, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab 992 ta maktabda joriy etiladigan bo'ldi [6]. Viloyatlar misolida oladigan bo'lsak, Samarqand viloyatida 2025-2026-o'quv yiliga kelib, 183 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida 285 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar 243 ta inklyuziv sinflarda sog'lom o'quvchilar bilan bir sinfda ta'lim-tarbiya olishmoqda. Shundan, 139 nafari o'g'il bolalar, 146 nafari qiz bolalarni tashkil etgan. Viloyatda dastlab, 2022/2023-o'quv yilida 20 ta maktabda inklyuziv sinflar tashkil etilgan edi [4]. Ushbu raqamlar O'zbekiston umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tobora ko'proq o'rin egallab borayotganini bildiradi.

Garchi oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishlarida inklyuziv ta'lim va gospiatal pedagogika o'quv rejalariga kiritilgan bo'lsa-da, bu umumta'lim maktablarida alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmasiga ega kadrlar yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolar inklyuziv ta'limning to'la qaror topishiga to'sqinlik qildi. Bundan tashqari, ushbu ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari va infratuzilma bilan bog'liq muammolar ham maqsadlarga to'la erishishga to'sqinlik qilmoqda. Jamiyatdagi mavjud qarashlar ham inklyuziv ta'lim rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Haligacha nuqsoni va nogironligi bor o'quvchilarning ota-onalari o'z farzandini barcha qatori umumiy maktablarga berishga tayyor emas. Alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning ko'pchiligi ham jamiyat tomonidan ular qanday qabul qilinishi borasida ishonchga ega emas. Mana shunday muammolar ham qaysidir ma'noda to'la maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'zbekiston ta'lim tizimining sovet davrida hozirgi kunga qadar bo'lgan rivojlanishini o'rganish nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish har doim davlat darajasida e'tibor qaratilgani va ularning barcha qatori ijtimooiy-iqtisodiy huquqlaridan foydalanishiga sharoit yaratilganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, inklyuziv ta'lim O'zbekistonda bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan tizim ekanligini ta'kidlash lozim. Inklyuziv ta'lim tarixiy jarayon sifatida hali ham rivojlanish bosqichida hisoblanadi. Bu ta'lim shakli kelajakda rivojlanish

istiqbollariga ega bo'lib, hozirda mavjud muammolarni bartaraf etishga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun pedagoglar tayyorlash, normativ-huquqiy bazani kuchaytirish, monitoring va baholash tizimini rivojlantirish zarur.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Moos E. The Educational System of the Soviet Union. – New York, 1950. – 66 p.
2. “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida” 15.10.2020 dagi O'RQ-641-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5049511>
3. Qodirova F., Pulatova D. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Darslik. – Chirchiq, 2022. – 259 b.
4. Samarqand viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi. Samarqand viloyatida inklyuziv ta'lim borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumotnoma. Samarqand, 2025.
5. “Ta'lim to'g'risida” 29.08.1997dagi 464-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-16188?ONDATE=05.01.2018%2002>
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Inklyuziv ta'lim va “mehrlil maktab” faoliyatini muvofiqlashtirish bo'lim boshlig'i To'rayev Ro'zibek bilan 2025-yil 16-iyuldagi suhbat.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 13.10.2020 dagi PQ-4860-sonli qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5044711#-5045565>
8. O'zbekiston ovozi. 2024-yil 7-fevral.
9. “O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida” 18.11.1991 dagi 422-XII-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://www.lex.uz/en/docs/-140824?ONDATE=12.07.2008>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.